

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “MUBAYYIN” ASARI  
NASHRLARINING MATN TAHLILI

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*  
*Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi*  
*2-kurs magistranti*  
*Shomurzayev Muhammadjon G‘ulom o‘g‘li*

“Jonajon Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga – Uchinchi Renessans davriga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Bobur Mirzoning bebaho merosini chuqur o‘rganish va ommalashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda”.

Shavkat Mirziyoyev

“Mubayyin” asari fiqhiy asarligini hisobga oladigan bo‘lsak, undagi kelgan oyat-u kalimalar ham buni tasdiqlaydi. Tadqiqotimiz natijasida bu asarning 2 ta nashri o‘rtasidagi farqlarni ko‘rib chiqamiz. Birinchisi “Sharq“ nashriyotida nashr qilingan Mirzo Kenjabekning “Mubayyan“ nasriy bayoni<sup>38</sup> va Hamidbek Hasanov nashrga tayyorlagan “Mubayyin” asarlaridir.<sup>39</sup> Har ikkala nashr ham 2014-yilda nashrdan chiqqan. Lekin matn tuzilishi va ichidagi oyat-u kalima vahadislari

kelish tartibi turlichadir. Masalan, ustoz Mirzo Kenjabek tomonidan tayyorlangan nashrning “Na‘at” bobida:

“Kimki Ahmad kibiki badraqadur,

Yo‘lda yuz xavf bo‘lsa ne boqadur.<sup>40</sup>

- ushbu na‘atda Mirzo Kenjabek “Ahmad” so‘zini belgilab, sharhida Ahmad Hazrati Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning Tavrotida kelgan nomlari ekanligini ta‘kidlab, Qur‘on Karimdan dalil sifatida 61 - “Soff” sura

6 –

oyatni keltiradi. Ushbu ikkilikning sharhida yana kimki hazrati Ahmad (sollallohu alayhi va sallam)dek yo‘lboshchisi - kuzatuvchisi nigohboni bo‘lsa, yo‘lda yuz xavf-xatari bo‘lsa, ne parvoyi bor (u zotning yo‘lida yurib sunnatlariga amal qildim bas, u saodatga yetaklaydi), deya ta‘kidlangan. Xuddi shu ikkilik Hamidbek Hasanov nashrga tayyorlagan kitobda “Ahmad” so‘zini

<sup>38</sup> Zahiruddin Muhammad Bobur. Mubayyan va nasriy bayoni, "Risolai Volidiyya" asari nazmiy tarjimasini va sharhi. Nasriy bayon va sharhlar muallifi M. Kenjabek; mas'ul muharrir A. Mansur; T.: «SHARQ», 2014. 448 b.

<sup>39</sup> Bobur, Zahiriddin Muhammad Mubayyin / Z. M. Bobur; O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi; Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi; nashrga tayyorlovchi va kirish bobi muallifi X. Xasanov; mas'ul muharrirlar: akademik Aliybeg Rustamiy, S. Hasanov, B. Umurzoqov. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashr. Toshkent, «Movarounnahr» nashriyoti, 2014. – 120 b.

emas, balki undan yuqorida zikr qilingan “Mustafo” so‘zining payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam ekanligini bayon qiladi. Xuddi shu na‘t bobida quyidagi parcha keltiriladi:

Bo‘yig‘a chust xil‘ati “Lavlok”

Lot og‘zig‘a ilgidin tunchok.

Bu misradagi “Lavlok” atamasini Mirzo Kenjabek quyidagicha ta‘riflaydi: “Hazrat Rosululloh sollallohu alayhi vasallam Makkani fath etganlarida Ka‘badagi butlarni sindirgan edilar. Jumladan, but egalarining talabi bilan Lot degan butni shaxsan o‘zlari yiqitganlar. Bu baytda shu voqeaga ishorat qilinmoqda. Izohida Qur‘oni Karimnidan Najm surasining 19/20-oyatlari keltiriladi. Sharhida aytiladiki, baytdagi “Lavlok” so‘zi orqali - “Lav laka ma xolaqtul - afloka” – “(Ey Habibim!) Agar sen bo‘lmasang, falaklarni (koinotni) yaratmas edim” degan mashhur hadisi qudsiyga ishorat qilinmoqda. Lot - avvalda payg‘ambar Shu‘ayb alayhissalomning qavmi sig‘ingan, keyinchalik Ka‘batullohga tiklab qo‘yilgan butlardan biri. Boshqa misrada “qoba qovsayn”ni muallif quyidagicha izohlaydi :

Uldurur anbiyo sarafrozi,

“Qoba qavsayn” mahrami rozi.

“Barcha payg‘ambarlarning sarafrozi - eng ulug‘i, eng ustuni, yuksagi, imomi u zotdirlar, (Qur‘oni karimda kelgan) “Qoba qavsayn” - “ikki yoy” sirrining sirdoshi bilguvchisi ham u zotdirlar, ya‘ni, meroj voqeasi bilan sharafalangandirlar.

(Ey Allohning Rasuli!) Qiyomat kunida menga shafu‘atingizni yo‘ldosh aylang! Boshqa ne deyin: Sizga Allohning salot-u salomlari, rahmat va barakotlari bo‘lsin!”.

“Qoba qavsayn” Qur‘oni Karimda kelgan, me‘roj voqeasiga dalil qilingan, Allohga yoki farishta Jabroil alayhissalomga o‘ta yaqinlik alomati bo‘lgan oyat iborasidir. Ma‘nosi: “O‘rtadagi masofa ikki yoy miqdoricha, hatto, yanada yaqinroq bo‘ldi, shu asnoda (Alloh) vahiy etgan narsani (Jabroil orqali) bandasiga vahiy qildi (53/Najm surasi, 9-oyat). Ammo Hamidbek Hasanov nashrga tayyorlagan “Mubayyin” kitobida “Lavlok” va “qoba qovsayn” atamasiga quyidagicha sharh beriladi. Asarda keltirilishicha: “Lav loka mo xolaqtu-l-afloka” – “Ey, Muhammad! Sen bo‘lmasang, falaklarni yaratmas edim” (hadisi qudsiy). 2. Lot Johiliyat davrida mushriklar sig‘ingan but - sanamning nomi. “Siyratun nabaviyya”da yozilishicha, Makka fath bo‘lgan kuni Ka‘batulloh atrofida va ichidagi uch yuzdan oshiq but-sanamlar qatori mazkur but, ya‘ni Lot ham yiqitilgan va sindirib tashlangan.

و قوله تعالى : قاب قوسين أو أدنى “Fa kona qoba qavsayni av adno...” “Ul Zot (Me’rojda) ikki kamon masofasi miqdori yoki undan ham yaqinrog‘ bo‘ldi” (Surai Najm, 9-oyat).<sup>41</sup>

Bu misrada Payg‘ambarimiz Hazrati Muhammad (alayhissalom)ning muborak Me’rojlaridagi oliy maqomlariga ishora qilinmoqda. Misraning mazmuni: Ul Zot, ya’ni Hazrat Muhammad (alayhissalom) Me’rojda Alloh ta’olo bilan so‘zlashgan va Haq ta’olodan bevosita vahiy olish baxti ila sarafroz bo‘lgan zotdirlar. Bu oliy baxt boshqa payg‘ambarlarga nasib bo‘lmagan, faqat Hazrat Muhammad (alayhissalom)gagina nasib bo‘lgandir.

Muallif Mirzo Kenjabek Mubayyanning “Namoz kitobida” kelgan suvga doir masalani fiqhiy shaklda poklik, avvalo, shundan boshlanishi va suv ikki turli, ya’ni biri “oqar” suv, ikkinchisi “turg‘un”ligi va orasidagi farqni keltiradi. Suv qachon “tohhir” va qachon “muttahir” bo‘lishligi ham mulohazadan chetda qolmagan. Asarda unga quyidagicha izoh beriladi.

Chun arig‘lig‘ bori bo‘lur suvdin,  
Burna suvning tahoratini deyin.  
Bil, masoyilni jahd ila so‘rg‘on,  
Bir ravon suvdurur, yana turg‘on.

Oqar suvning girdob yerida tahorat qilib bo‘lmaydi, chunki girdob a’zodan ajralib chiqqan suvni oqizib ketmaydi (“Xulosa” – “Maslak ul- muttahiyn”, 92-b.).

Agar suvda najosat bilan o‘laksa bor bo‘lsa, bu oqar suv haqida hukm budur: agar (najasot) suvning yarmiga yoki ko‘piga tekkan bo‘lsa, u holda bu suv nopokdir. Xuddi shunga o‘xshash ko‘rinish - suvda hayvon o‘ligi kelishi ham Mirzo Kenjabek “Mubayyan”asarida quyidagicha yoritiladi :

Bo‘lsa bu suvda bir o‘luk hayvon,  
Bo‘lmag‘on bo‘lsa anda xun ravon,  
Yo suv hayvonlaridin o‘lsa suvda,  
Ushbularning o‘lugi bo‘lsa suvda:  
Chibinu pashshavu chayon yanglig‘,  
Baqqavu panjpoyavu balig‘,  
Bu suv bo‘lmas najas, bo‘lung ogah,  
Nechakim, bo‘lmasa dah dar dah.

- Bu suvda bir o‘lik hayvon bo‘lsa, unda oqar qoni bo‘lmasa, yoki suv hayvonlaridan biri suvda o‘lsa, suvda chivin, pashsha, chayon, baqa,

<sup>41</sup>Hamidbek Hasanov nashri, 36-bet.

qisqichbaqa, baliq kabi narsalarning o'ligi bo'lsa, bu har necha o'n gazga o'z gaz bo'lmasa ham, bu suv najas bo'lmaydi, ogoh bo'ling.<sup>42</sup>

Shuningdek, bu ikkita asarni qiyosiy tadqiq qilishda sarlavhalar har xil tanlanganiga ham e'tibor berdik. Masalan, Mirzo Kenjabek kitobida "Suv masoyili" deyilsa, Hamidbek Hasanov kitobida "Suvning masoyili" deb nomlangan. Bu ikkita kitobning farqli jihatlaridan biri va bizning qiyosiy tadqiqotimiz obyekti sifatida qarashimizga arziydigan jihat. Lekin bu holat "Mubayyin"ning "Kitobus solat" bobining "Tahorat farzlarining bayoni" qismida farqli deb topmadik. Sababi har ikkala kitobda ham bir xil sarlavha berilgan.<sup>43</sup>

Lekin yana bir narsani ta'kidlab o'tishimiz lozimki, Mirzo Kenjabekning "Mubayyin" asari sharh va tarjima uslubi Hamidbek Hasanovnikidan sezilarli farq qiladi. Mirzo Kenjabekning yondashuvi asosan o'quvchiga soddaroq va nasriy bayon bilan tushuntirishga qaratilgan. U Bobur asarining mohiyatini imkon qadar tushunarli qilib izohlashga intiladi. Masalan, "**Tirsaking birla ellaringni yuvgil**" degan satrlarni Kenjabek "**Keyin tirsaging bilan qo'shib qo'llaringni yuvgin**" deb nasriy qilib izohlaydi. Ushbu yondashuv keng ommaga tushunarli bo'lishni ta'minlaydi.

Hamidbek Hasanov esa matnni asliga imkon qadar yaqin holatda, Boburning o'ziga xos tili va iboralarini saqlagan holda tarjima qilishni maqsad qilgan. U o'z sharhlarida ko'pincha izohlar va snoskalar orqali Bobur davrida ishlatilgan so'zlarning ma'nosini tushuntiradi. Xususan, aynan mana shu "Tahorat farzlarining bayoni" misolida kengroq izohlaydigan bo'lsak, "muxdis" so'zini "betahorat" deb izohlashi yoki "vajh" so'zini "yuz" ma'nosida taqdim etishi matnning tarixiy va ilmiy jihatdan to'g'riligini ta'minlashga xizmat qiladi.<sup>44</sup>

Kenjabek uslubida Bobur asarining ma'no jihatlari soddalashtirilgan, lekin matndagi badiiylik va o'ziga xos she'riy ifoda bir oz cheklangan. Hasanovda esa asarning o'ziga xos badiiy tili, qiyosiy tushunchalar va arabcha istilohlar saqlab qolingan. Misol uchun, "**Uzvlardin su ul qadar tomsa**" degan satr Kenjabek sharhida "Tahorat a'zolaridan suv shu qadar tomsaki, oqib borsa" deb berilgan bo'lsa, Hasanov aslyatga yaqin tarzda "Uzvlardin su ul qadar tomsa kim, oqib borsa" deb saqlab qolgan. Bu esa Hasanov yondashuvining ko'proq ilmiy tadqiqot va akademik foydalanishga mo'ljallanganini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, Kenjabekning tarjimasini keng kitobxonlar auditoriyasi uchun qulay va tushunarli bo'lsa, Hasanov tarjimasini asarning asl tili va uslubiy

<sup>42</sup> Izoh. Suvda tug'iladigan va oqar qoni yo'q narsa (suvda) o'lib qolsa, zarari yo'q (suvni bulg'amaydi) ("Muxtasari Viqoya" - "Kifoya", 1, 109-6.).

<sup>43</sup> Mirzo Kenjabek nashri – 96-bet.

Hamidbek Hasanov nashri – 56-bet.

<sup>44</sup> 56-57-betlar.

xususiyatlarini saqlashga intilgan. Bu ikki yondashuvning har biri o'z o'quvchi auditoriyasiga muvofiq xizmat qiladi.

So'z "Tahorat farzlarining bayoni" xususida bo'larkan quyidagi misralar alohida e'tiborga molikdir:

Saqol ostida zohir o'lmasa yuz,

Farz bil mas'hini, eshit bu so'z. -

Mirzo Kenjabek sharhida: "Soqol ostida yuz ko'rinmasa, unda soqolga mas'h tortishni farz deb bil, bu so'zni eshit."<sup>45</sup> Mirzo Kenjabek bu baytda soqolli kishilar uchun yuzni yuvish farziga alohida urg'u beradi. U Boburning she'riy uslubini tushunarli va sodda nasrga aylantirar ekan, soqol ostida teri ko'rinmasa, soqolni mas'h qilishning shariatda farz ekanligini eslatadi. Tarjimada "eshit bu so'z" iborasi saqlanib, Boburning uslubiga yaqin shakl yaratilgan. Bu shariatdagi poklanish qoidalarining har bir holat uchun alohida belgilanganini ko'rsatadi.

Hamidbek Hasanov ushbu baytni sharhlab, shariatda soqolli kishilar uchun amal qilinadigan maxsus qoida – soqolni mas'h qilish aniq belgilanganini qayd etadi. Tarjimada "mas'h" so'zining asl ma'nosi (ho'l qo'l bilan silash) keltirilib, "farz bil mashini" iborasiga oydinlik kiritiladi. Hasanovning uslubida ilmiy va terminologik aniqlik kuchliroq bo'lib, shariat qoidalari izchil va mutlaqo ilmiy ruhda yoritiladi. Yoki yana bir boshqa baytni olaylik:

Yuz yuvmoqdur biri bulardin, bil,

Tirsaking birla ellaringni yuvg'il.

Mirzo Kenjabek ushbu baytda yuzni va tirsak bilan qo'llarni yuvishning farz ekanini sodda va tushunarli tilda izohlaydi. U "yuz yuvmoqdur biri bulardin" jumlasini orqali tahoratdagi asosiy amallardan birini ta'kidlaydi. Kenjabekning sharhi mazmundor va amaliyotga yaqin bo'lib, qoidalarni oson qabul qilishni maqsad qilgan. U "tirsaking birla" kabi iboralarni ishlatib, o'quvchini ibodat amallarida ehtiyot bo'lishga undaydi.

Hasanov esa bu baytni yanada ilmiyroq tahlil qiladi. "Ellaringni yug'il" iborasida "el" so'zining "qo'l" degan ma'noda qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratadi. Shuningdek, Hasanov "tirsak" atamasining shariatdagi ahamiyatini tafsilot bilan tushuntiradi, qo'lyozmalardagi izohlarni qo'shadi. Ushbu uslubda shariatning qonun-qoidalarini kengroq ma'noda yoritish, manbalarni taqqoslash va ilmiy asoslashga urg'u berilgan. Bu talqin o'quvchini qoidalarni kengroq tushunishga chorlaydi.

"Qurbonlikning bayoni" qismida:

Yana azhiyya, bilki, vojibtur,

<sup>45</sup> H.Hasanov nashri, 56-bet.



Biydi azhoda sen bajo keltur.

Sadaqayi fitr vojib o'lg'ong'a

Vojib o'lg'ay bu ish dag'i ong'a.

Mirzo Kenjabek, qurbonlikning vojib ekanligini ta'kidlaydi. U "azhiyya" (qurbonlik) haqidagi fikrni izohlaydi va bu amalni Qur'oni Karimga asoslaydi. "Biydi azhoda sen bajo keltur" orqali Qurbonlik hayitida bajarilishi kerakligini ochib beradi, bu amalni har bir musulmon bajarishi lozim. Sadaqayi fitrni (Ramazon oyining oxirida beriladigan zakotni) qurbonlikka tenglashtiradi. Sadaqa fitrning ham vojib bo'lishini tushuntirib, bu amalning ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuningdek, Qurbonlikni o'zingiz uchun qilishingiz kerakligini bildiradi.

Hamidbek Hasanovning talqinida, "azhiyya" (qurbonlik) va "Iyd-i Azho" (qurbonlik hayiti) bo'yicha vojiblikka doir fikrlar aniq ifodalangan.<sup>46</sup> Bu baytda Hasanov qurbonlikning farz ekanligini ko'rsatib, uni aniq vaqt va shartlarga bog'laydi. U, shuningdek, "sen bajo keltur" ifodasini qo'llagan holda, Qurbonlik amalini namozdan so'ng bajarilishini izohlaydi. Sadaqayi fitrning vojibligini Mirzo Kenjabek kabi qurbonlik bilan bog'laydi. Lekin u bu amalning har bir musulmon uchun muhimligini ta'kidlaydi, chunki u shariatga mos ravishda bajarilishi kerak. Zahiriddin Muhammad Boburning "Mubayyin" asari uning tasavvufiy qarashlari, diniy-falsafiy mulohazalari va insonning ruhiy-ma'naviy kamolotga erishish yo'lidagi izlanishlarini o'z ichiga olgan muhim asarlaridan biri sanaladi. Ushbu asar hozirgi kunga kelib ilmiy va adabiy jihatdan keng tadqiq etilgan bo'lib, u Bobur davri madaniy hayoti va diniy-falsafiy muhitini chuqurroq tushunishga yordam beradi. "Mubayyin" qo'lyozmalari va nashrlari ustida olib borilgan tadqiqotlar orqali asarning mazmuniy va uslubiy o'ziga xosliklarini anglash, matndagi qiyosiy jihatlarni aniqlash, lingvistik va uslubiy xususiyatlarini o'rganish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Asarni o'rganish jarayonida, uning turli qo'lyozma nusxalari tahlil qilinib, matnning asl mazmuni va uslubiy an'analari saqlanib qolganiga ishonch hosil qilishga qaratilgan. Qo'lyozma nusxalarining mavjudligi Bobur asarini ko'plab avlodlar davomida asralib, saqlanib kelgan muhim diniy-adabiy manba sifatida qabul qilinganini ko'rsatadi. Ular Bobur zamonidan keyin ham asarning qadri baland bo'lib, qiziqish uyg'otganini isbotlaydi. Bobur o'z davrida keng ilmiy bilimlarga ega bo'lgan holda asarni yaratgan, unda diniy va axloqiy qoidalarni o'ziga xos uslubda tushuntirib bergan. Shu bois "Mubayyin" asari nafaqat o'z davri uchun, balki keyingi avlodlar uchun ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Asar qo'lyozmalarining mavjudligi va ularni taqqoslab o'rganish imkoniyati, asarning asl nusxasidagi o'zgarishlarni aniqlashda katta ahamiyatga ega. Turli qo'lyozmalar orasida grammatik va uslubiy farqlar mavjud bo'lib, bu farqlar qo'lyozmalarni ko'chirish jarayonida yuzaga kelganligi taxmin qilinadi. Ba'zi qo'lyozmalar ko'chirish jarayonida o'zgartirilgan yoki tahrirlangan bo'lishi mumkin. Bu o'zgarishlarni aniqlashda qo'lyozmalar orasidagi o'zaro taqqoslash, asarning asl nusxasini anglashda muhimdir. Qo'lyozmalarni tahlil qilish Bobur uslubining qanday o'zgarishlarga uchraganini va uning asli qanday bo'lganini tushunishga yordam beradi.

Asarning lingvistik xususiyatlari ham alohida o'rganilgan. Bobur "Mubayyin" asarida arabcha va forsiy so'zlardan keng foydalangan. Bu o'sha davrdagi adabiyotga xos bir xususiyat bo'lib, ilmiy va diniy adabiyotlarda arabcha va forsiy atamalar ko'p uchraydi. Bu so'zlarning o'zbek tiliga singib ketishi va asarda qo'llanishi orqali matn yanada chuqurlashgan va boyigan. Arabcha va forsiy so'zlar bilan birgalikda Bobur o'zbek tilining boy ifodalarni ham qo'llab, o'z g'oyalarni aniq ifodalashga erishgan. Lingvistik tahlil davomida arabcha va forsiy so'zlarning qo'llanilishi, ularning kontekstdagi o'rni va ma'nosi chuqur o'rganilgan. Bu tahlil orqali Bobur o'z davrida mavjud bo'lgan ilmiy va diniy so'z boyligidan foydalanib, o'zining tasavvufiy-falsafiy qarashlarini qanday ifodalaganini anglash mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad Mubayyin / Z. M. Bobur; o'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi; Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi; nashrga tayyorlovchi va kirish bobi muallifi H.Hasanov; mas'ul muharrirlar: akademik Aliybeg Rustamiy, S.Hasanov, B. Umurzoqov. Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashr. Toshkent, «Movarounnahr» nashriyoti, 2014. – 11-27 b.
2. Азимджанова С. Бабур Индийский век. Т.: Наука, 1966.
3. Стеблева И.В. Семантика газели Бабур. — М.: 1983.
4. Н.Қудратуллаев. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston, 2017. 484 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016. 53b
7. Olimov M. O'zbek boburshunosligi tarixidan. O'zbek tili va adabiyoti, 1989
8. Vohidov R. Biz bilgan va bilmagan Bobur. Toshkent. 2008 yil.

9. Abdulhay Lakhnaviy – Hasaniy. “Nuzhat ul-xavotir ” – “Xotiralar sayri”; 314-bet.
10. X.Nazarova."Boburnoma" tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. — T.: 1980;
11. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. -T.:1996;
12. V.Zohidov. Boburning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Bobirnomasi. -T.:1960;
13. Yangi O‘zbekiston gazetasi 2022 yil 19 mart
14. S.Hasanov. Boburning „Risolayi aruz“ asari. -T.:1986;
15. U. Erskin. Babur state in India. — T.: 1997:
16. R. Sharma. The kingdom of the Baburs .. -T.: 1999.
17. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. – Toshkent: Info Capital Books, 2020. 172 b.
18. Bobur va o‘zbek milliy madaniyati taraqqiyotining ayrim masalalari. (Bobur tavalludining 510 yilligi munosabati bilan Andijonda o‘tkazilgan respublika ilmiy anjumani materiallari).- Andijon, 1993.
19. O‘zbek adabiyotida Bobur siymosi / Bobur ensiklopediyasi. Toshkent: - “Sharq” NMAK, 2017. 538-42-betlar
20. Bobur abadiyati.“Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining jahon madaniyati tarixida tutgan o‘rni” mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari. Andijon, 2017-yil 26-27-oktyabr.
21. ZAHİRİDDİN MUHAMMAD BOBUR VA OZARBAYJON. AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu. Azərbaycan, 2021. 51-61 b.
22. <https://sammuslim.uz/oz/press/news/mubayyan-va-nasriy-bayoni-bobur-mirzo-buyuk-faqih-birinchi-mavzu?print=on>
23. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m9783>